

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**SHARQ MAMLAKATLARIDA TIL VAZIYATI VA SIYOSATI**  
**(TURKIYA)**

**FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 200000 – San'at va gumanitar fanlar  
**Ta'lim sohasi:** 230000 – Tillar  
**Mutaxassislik:** 70230101 - Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti  
instituti direktori:

X.V. Mirzaxmedova

Turkshunoslik  
oliy maktabi boshlig'i:

M.P. Aripov

ARM boshlig'i

Yuldasheva M.M.

|                                     |   |   |                               |                                     |  |
|-------------------------------------|---|---|-------------------------------|-------------------------------------|--|
| <b>Fan/modul kodi</b><br>SHMTVS1204 |   | <b>O'quv yili</b><br>2025-2026          | <b>Semestr</b><br>2           | <b>ECTS - Kreditlar</b><br>4        |  |
| <b>Fan/modul turi</b><br>Majburiy   |   | <b>Ta'lim tili</b><br>O'zbek            |                               | <b>Haftadagi dars soatlari</b><br>4 |  |
| 1.                                  | <b>Fanning nomi</b>   | <b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b> | <b>Mustaqil ta'lim (soat)</b> | <b>Jami yuklama (soat)</b>          |  |
|                                     | <b>Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Turkiya)</b>  | 48                                      | 72                            | 120                                 |  |
| 2.                                  | <p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Bu fanning maqsadi Turk tiliga oid zamonaviy sosiolingvistika fani va uning terminlari, sosiolingvistika fanining asosi bo'lgan til vaziyati, ikki tillik va ko'p tillilik, til siyosati masalalarini o'rganadi. Shuning bilan birga sosiolingvistika bilan bog'liq nazariy adabiyotlarni o'rganishdan iborat bo'ladi. Turkiya Cumhuriyatida til vaziyatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi davrda tilda yuz berayotgan jarayonlarni o'rganish hamda tilning rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillarni tushinib yetish bilan tanishtiradi.</p> <p>Ushbu fan vazifalarida turk tili lug'at tarkibidagi neologizatsiya yo'llarini ko'rib chiqish, ijtimoiy-siyosiy davridagi holatini o'rganish ham ko'zda tutilgan. Mazkur fanni o'rganish magistrlik dissertatsiyalarini yozishda magistr'larga katta yordam beradi. Chunki tilda yuz berayotgan jarayonlarni tilning lug'at tarkibiga ta'sirini bilish tilni yanada chuqur o'rganishda asqotadi.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Yaqin Sharq texnika universiteti (Middle East Technical University (QS-284)) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://turk.metu.edu.tr/tr/turk-dili-bolumu-tarafindan-verilen-dersler">https://turk.metu.edu.tr/tr/turk-dili-bolumu-tarafindan-verilen-dersler</a></p> <p style="text-align: center;"><b>II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkidiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu: Kirish. Turkiyada til vaziyati va siosati fanning mazmuni va tuzilishi</b></p> <p>'Til vaziyati' atamasining mohiyati. Uning boshqa sotsiolingvistik tushunchalardagi o'rni va ahamiyati. O'rganilayotgan til vaziyatini sotsiolingvistikaning bir bo'lagi sifatida ko'rish. Til vaziyatini o'rganishning diaron va sinxron aspektlari.</p> |   |                               |                                     |  |

**2- mavzu: Kirish. Turkiyada til vaziyati va siosati fanning mazmuni va: Turkiya Respublikasida mavjud tillar: rasmiy va norasmiy tillar (karta asosida regionlar bilan tushuntiriladi)**

Turkiyada mavjud tillar. Ularning til vaziyatini o'rganishdagi o'rni va ahamiyati. Oblastlar va hokimiyatlar: Turkiyaning lingvistik xaritasi, elatlar va ularning tillari (etnolingvistik xarita).

**3-mavzu: Mustafu Kamol Otaturk va turk tili**

Turkiya Respublikasining va Respublikada til siyosatining shakllanishida Otaturkning o'rni. Mustafu Kamol Otaturk va til inqilobi. Turkiya tarixidagi turk tilining ahamiyatiga e'tibor qaratish. Otaturkning qalamiga mansub maqolalar.

**4- mavzu: Turk adabiy tili va uning tayanch shakllanish asoslari**

Turk tilining tarixiy bosqichlari. Zamonaviy turk adabiy tilining shakllanishiga asos manbalar haqida. Turk adabiy tilining funksional ko'rinishlari (yozma, rasmiy, publisistik, ilmiy va x.k).

**5- mavzu: Turk tilida ijtimoiy-kommunikativ tizimlar. Lisoniy kodlar; tor va keng kodlar**

Lisoniy hamjamiyat atamasi va tushunchasi. Jamiyat a'zolarining qatamlari ular foydalanadigan til. Ijtimoiy-kommunikativ tizimni tashkil qiluvchi kodlar. Kod yoki subkod tushunchasi .

**6- mavzu: Turkiyada ijtimoiy tabaqalar va til**

Ijtimoiy tabaqalar va tilning bu tabaqalarda qo'llanilishi. "Kibar, orta ve kaba turkçe" atamaları haqida. Tilning jamiyatdagi vertikal va gorizontanalizi.

**7- mavzu: Ijtimoiy jamiyatda jins va til. Tilning ijtimoiy tabaqadagi yosh va kasbga ko'ra qo'llanilishi**

Til va jins: Jamiyatda bir tildan foydalanuvchi ayol va erkakning tildan uchraydigan o'ziga xosliklar: ijtimoiy variantivlik. Yoshlar tilida sleng. Jamiyatda til va kasb.

**8- mavzu: Turk tilining xorijiy tillar bilan munosabati**

Jamiyat taraqqiyotida halqaro munosabatlar. Munosabatlarda Turk tilining xorijiy tillarga va xorijiy tillarning ayni paytda turk tiliga ko'rsatgan ta'siri haqida.

**9- mavzu: Turkiyadagi til shevalari**

Til shevalarining mintaqalarga ko'ra tasniflanishi: Asosiy shevalar; Sharqiy guruh shevalari; Shimoliy sharqiy guruh shevalari; G'arbiy guruh shevalari. Axmed Jafero'g'li va boshqalar tasnifi.

**10- mavzu: Tilda diglossiya va kodlar aralashuvi. Turkiyada til siyosati**

Diglossiya tushunchasi haqida. Tilning holati va vaziyati. Bilingvizm va ko'p tillik. Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tish. Konstitutsiya va til. Bir tilliylik siyosati. Turk til qurumi va uning faoliyati. Turk til qurumining maqsad va vazifalari. Turk til qurumi nashrlari.

**11- mavzu: Turkiyada matbuot. Turk tilida radio eshittirish va televideniye.**

Turk tilida va horijiy tillarda matbuot. Turkiyada gazeta va jurnallar ularning turlari: Kunlik, haftalik, oylik va yillik. Gazeta va jurnallarning tarqalish ko'lami: Jumhuriyatda va chet elda, faqat Jumhuriyatta, viloyat va tumanlar.

Turk tilida radio eshittirish va televidenie (markaziy va viloyat televideniesi, rasmiy va xususiy). Davlat kanallari va xususiy kanallar.

**12- mavzu: Turkiyada turk tili va ta'lim slstemasi. Turkiyada til va madaniyat**

Maktabgacha ta'lim, Boshlang'ich ta'lim va maktab. Oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim sistemasi. Majburiy ta'lim va ixtiyoriy ta'lim turlari. Ta'limda til siyosati.

Madaniyat o'choqlari: kino, teatr va h.k. Turk tili. Mahalliy va xalqaro Konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlar. Ularda til masalalari: bir tillilik va ikki tillilik.

**III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Turkiyada til vaziyati va siyosati fanning mazmuni va tuzilishi. Sotsiolingvistikada til vaziyati va siyosatining o'rni, ahamiyati.
2. Turkiya Respublikasida mavjud tillar: rasmiy va norasmiy tillar (karta asosida regionlar bilan tushuntiriladi). Oblastlar va hokimiyatlar: Turkiyaning lingvistik xaritasi, elatlar va ularning tillari (etnolingvistik xarita).
3. Mustafo Kamol Otaturk va turk tili. Turkiya Respublikasining va Respublikada til siyosatining shakllanishida Otaturkning o'rni.
4. Turk adabiy tili va uning tayanch shakllanish asoslari. Turk adabiy tilining funksional ko'rinishlari (yozma, rasmiy, publisistik, ilmiy va x.k).
5. Turk tilida ijtimoiy-kommunikativ tizimlar. Lisoniy kodlar; tor va keng kodlar.
6. Turkiyada ijtimoiy tabaqalar va til. Ijtimoiy tabaqalar va tilning

vertikal va gorizontal analizi.

7. Ijtimoiy jamiyatda jins va til. Tilning ijtimoiy tabaqadagi yosh va kasbga ko'ra qo'llanilishi.

8. Turk tilining xorijiy tillar bilan munosabati; Turk tilining xorijiy tillarga va xorijiy tillarning ayni paytda turk tiliga ko'rsatgan ta'siri haqida.

9. Turkiyadagi til shevalari. Til shevalarining mintaqalarga ko'ra tasniflanishi; Axmed Jafero'g'li va boshqalar tasnifi.

10. Turkiyada diglossiya va kodlar aralashuvi. Bilingvizm va ko'p tillik. Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tish. Turkiyada til siyosati. Turk til qurumi va uning faoliyati.

11. Turkiyada matbuot (gazeta va jurnallar ularning turlari). Gazeta va jurnallarning tarqalish ko'lami. Turk tilida radio eshittirish va televidenie (markaziy va viloyat televideniesi, rasmiy va xususiy).

12. Turkiyada turk tili va ta'lim sistemasi. Maktabgacha ta'lim, Boshlang'ich ta'lim va maktab. Oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim sistemasi. Turkiyada til va madaniyat: kino, teatr va h.k. Konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlar.

Nazariy mashg'ulotlarda olingan bilimlarni talabalar amaliy mashg'ulotlarda ko'nikma va malakalarini oshirib, mustahkamlab boradilar. Amaliy darslarga tayyorlanish uchun talabalar qo'shimcha ilmiy adabiyotlarni o'qiydilar va bu ham o'z o'rnida mazkur fanni yanada chuqur egallash uchun yordam beradi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;

- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;

- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;

- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan*

|    |   |
|----|---|
|    | <p><i>holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;</li> <li>- badiiy-ijodiy ishni bajarish;</li> <li>- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;</li> <li>- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;</li> <li>- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;</li> <li>- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;</li> <li>- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;</li> </ul> <p><b>“Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Turkiya)” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Turkiyaning lingvistik xaritasi, elatlar va ularning tillari (etnolingvistik xarita).</li> <li>2. Saljuqiylar va usmoniylar davrida til siyosati.</li> <li>3. Tilning rivojlanishi va til tizimiga boshqa tillarning ta'siri masalasi.</li> <li>4. Til purizmi va o'zlashtirilgan so'zlarni moslashtirish muammolari.</li> <li>5. Turk tili leksikasini shakllantirishda sotsiolingvistik muammolar.</li> <li>6. Turk siyosatining lingvistik oqibatlarini.</li> <li>7. Turk tiliga o'zlashtirish jarayonida G'arbiy Yevropa madaniyatining ta'siri.</li> <li>8. Turk tili tadqiqotchilari asarlarida yevropeizmlar.</li> <li>9. Leksik o'zlashmalarning moslashuvi va assimilyatsiyasi.</li> <li>10. Turkiya Respublikasida mavjud tillar: rasmiy va norasmiy tillar (karta asosida regionlar bilan tushuntiriladi).</li> </ol> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.</p> |
| 3. | <p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Magistrant bilishi kerak:</b></p> <p>“Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Turkiya)” fanining o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Turk tiliga oid zamonaviy sosiolingvistika fani bilan bog'liq bilimlar bazinasini oshiradi, savol-javob va analiz qilish jihatlarini o'stiradi;</li> <li>- o'rganilayotgan mamlakatning etnik tarkibi va ularning tilini;</li> <li>- til vaziyati tushunchasini;</li> <li>- til vaziyati turlari va ularning farqlarini;</li> <li>- tili o'qitilayotgan mamlakatdagi etnolingvistik vaziyatni;</li> <li>- bilingvizm va polilingvizmni;</li> <li>- davlat tili tushunchasi, ya'ni o'rganilayotgan mamlakatda olib borilayotgan til siyosatini;</li> <li>- jamiyatda til vaziyatini xarakterlovchi omillarni;</li> </ul>  |

|    |   |
|----|---|
|    | <p>– o‘rganilayotgan mamlakatda til vaziyatini me‘yorga solishda Til akademiyalarining o‘rnini;</p> <p>– savodsizlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda davlat tomonidan o‘tkazilayotgan til bilan bog‘liq ta‘lim tizimidagi islohotlarni;</p> <p>– OAV va televideniening mamlakatdagi til vaziyatiga ta‘sirini;</p> <p>– xalqaro mehnat taqsimotida Sharq mamlakatlarining roli va o‘rganilayotgan mamlakatdagi til vaziyatiga ularning ta‘sirini;</p> <p>– til vaziyatining rivojlanish tendensiyalarini;</p> <p>– til vaziyatining rivojlanish omillari va tarixiy-madaniy sabablarini;</p> <p>– o‘rganilayotgan mamlakatning lingvojeografik va lingvoareal tavsifini;</p> <p>– o‘rganilayotgan mamlakat adabiy tilining maishiy-so‘zlashuv tili va dialektlardan farqini;</p> <p>– o‘qitilayotgan til lug‘at boyligining o‘shishida turli ilmiy tashkilotlarning o‘rnini <i>bilishi kerak</i>.</p> <p><b>Bular bilan bir qatorda magistrant:</b></p> <p>– o‘rganilayotgan mamlakatdagi til vaziyati bo‘yicha ma‘lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tizimlashtirish;</p> <p>– o‘rganilayotgan tilni isloh qilish yo‘lida olib borilgan harakatlar, ularning faoliyatiga umumiy baho berish;</p> <p>– globalashuv sharoitida o‘rganilayotgan sharq tilining umumiy holati bo‘yicha kechayotgan o‘zgarishlarni tushuna olish <i>malakalariga ega bo‘lishi kerak</i>.</p> |
| 4. | <p><b>VI. TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>● Ibrat farzandlari platformasida mavjud bo‘lgan fanga doir darslardan samarali foydalanish;</li> <li>● Fanga doir videomahsulotlardan foydalangan holda darslarni olib borish;</li> <li>● Grammatik-tarjima metodi;</li> <li>● Audio-lingval metod;</li> <li>● Audiovizual metod;</li> <li>● Namoyish qilish (demonstratsiya) metodi;</li> <li>● guruhlarda ishlash.</li> <li>● Aqliy hujum;</li> <li>● Klaster;</li> <li>● Baliq skeleti texnikasi;</li> <li>● Ajurli arra” texnologiyasi;</li> <li>● FSMU texnologiyasi;</li> <li>● Bumerang texnologiyasi;</li> <li>● Insert jadvali;</li> <li>● BBXB (bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim) texnikasi;</li> <li>● Tayanch iboralar ishtirokida gap tuzish uslubi;</li> <li>● Flipped Classroom (Teskari sinf);</li> <li>● Learning Management Systems (LMS);</li> </ul>  |

- Peer Instruction (Tengdosh orqali o'rganish);
- Team-Based Learning (Jamoaviy o'qitish);
- Poll/Quiz texnologiyalari;
- Learning Analytics (O'quv tahlillari);
- E-portfolyo;
- Turnitin va shunga o'xshash vositalar;
- VR/AR va virtual laboratoriyalar;
- Ochiq ta'lim resurslari (OER) va H5P.

5.

#### VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

6.

#### VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

##### Asosiy adabiyotlar

1. Chomsky N., Pinker S., Loftus E. Dil, Düşünce ve Bellek. Ankara: Gece Kitaplığı, 2023.
2. Lars Johanson & Éva Á. Csató. The Turkic languages. London & New York: Routledge, 2022.
3. Sier Eker. Çağdaş Türk Dili. Ankara: Grafiker yayınları, 2006
4. Doğan Aksan. Her Yönüyle Dil. Ankara: TDK yayınları, 2000.
5. Vygotsky L.S. Düşünce ve Dil. İstanbul: Toplumsal Dönüşüm Yayınları, 1998.

##### Qo'shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent:
7. O'zbekiston, 2024
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
10. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
11. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
12. Buran A. Kurşunlanan Türkoloji. Ankara: Akçağ Yayınları, 2019
13. Rierre Acherd. Dilsel Toplum bilim. Cep Universitesi. İstanbul: 1994
14. Türkiye Türkçesi Grameri. Zeynep Korkmaz. TDK yayınları

|    |   |
|----|---|
|    | <p>15. Söz Varlığı Yazım Anlatım Açısından Türkçedeki Gelişmeler. Hamza Zülfikar, TDK yayınları.</p> <p style="text-align: center;"><b>Scopusdan maqolalar</b></p> <p>16. Temizyurek, F. The impact of different types of texts on Turkish language reading comprehension at primary school grade eight students // EURASIAN JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH , vol.8, no.30, pp.141-152, 2008.<br/> <a href="https://ejer.com.tr/wp-content/uploads/2021/01/eier_2008_issue_30.pdf">https://ejer.com.tr/wp-content/uploads/2021/01/eier_2008_issue_30.pdf</a></p> <p>17. Temizyürek F., Sallabaş M.E. Türk Dünyasından Gelen Öğrencilerin Türkiye Türkçesi Metinlere Yönelik Tutumları // bilig, Sayı 95, 2020. ss.1<br/> <a href="https://bilig.yesevi.edu.tr/shw_artcl-4140.html">https://bilig.yesevi.edu.tr/shw_artcl-4140.html</a></p> <p>18. Kadioğlu İ. Türkçede K-S Ses Denkligi // Türkbilig, Sayı 44, 2022. ss. 45-63. <a href="https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/2854855">https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/2854855</a></p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <p>19. <a href="http://ru.wikipedia.org/wiki/Тюркология">http://ru.wikipedia.org/wiki/Тюркология</a><br/> 20. <a href="http://altaica.narod.ru">http://altaica.narod.ru</a><br/> 21. <a href="https://ibratfarzandlari.uz/">https://ibratfarzandlari.uz/</a> Ibrat farzandlari platformasi<br/> 22. <a href="http://ziyonet.uz/uzc/library/libid/20700">http://ziyonet.uz/uzc/library/libid/20700</a><br/> 23. <a href="http://www.philology.ru">www.philology.ru</a><br/> 24. <a href="http://tashgiv.uz/index.php?option=com_content&amp;view=article&amp;id=129&amp;Itemid=9&amp;Itemid=9&amp;Itemid=9">http://tashgiv.uz/index.php?option=com_content&amp;view=article&amp;id=129&amp;Itemid=9&amp;Itemid=9&amp;Itemid=9</a><br/> 25. <a href="http://www.tdk.gov.tr">www.tdk.gov.tr</a></p> |
| 7. | <p>Fanning o'quv dasturi Turkshunoslik oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025- yil 25-iyundagi 21-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br/> O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil 28-iyundagi 11- sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>  |
| 8. | <p><b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b><br/> M.P.Aripov – TDSHU Turkshunoslik oliy maktabi boshlig'i, PhD<br/> M.M.Kayumova – TDSHU Turkshunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD</p>   |
| 9. | <p><b>Taqrizchilar:</b><br/> Q.P.Sodiqov – TDSHU, Turkshunoslik oliy maktabi professori, f.f.d.<br/> A.X.Tilavov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, f.f.n.</p>   |